



## MAMLAKATIMIZDA TURIZMNI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EMPIRIK TAHLILI

**Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0009 0008 6396 5412

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilib, so'nggi yillardagi yillik statistik ma'lumotlarni eng kichik kvadratlar usuli asosida regression tenglamalar tuizilib turli testlarga tekshirishldi.

**Kalit so'zlar:** turizm, kadr, regressiya, omillar, turistlar, xorijdan tashrif buyuruvchilar.

## ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В НАШЕЙ СТРАНЕ

**Юлдашева Дилноза Улугбековна**  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье проведен эконометрический анализ факторов, влияющих на развитие туризма в Узбекистане, а также проверены годовые статистические данные последних лет путем построения уравнений регрессии на основе метода наименьших квадратов.

**Ключевые слова:** туризм, персонал, регрессия, факторы, туристы, гости из-за границы.

## EMPIRICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN OUR COUNTRY

**Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna**  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** In this article, the econometric analysis of the factors influencing the development of tourism in Uzbekistan was carried out, and the annual statistical data of the last years were tested by constructing regression equations based on the method of least squares.

**Key words:** tourism, personnel, regression, factors, tourists, visitors from abroad.

### **Kirish.**

Jahon amaliyotida turizm va ta'lim xizmatlari bozorining yetakchi ishtirokchilari hisoblangan oliy ta'lim muassasalarining mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilishini samarali boshqarishda bir qator muammolarning ilmiy yechimlarini ta'minlash yuzasidan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etilgan. Zamonaviy industrial dunyoga qo'shilishga intilish jadal o'zgarib borayotgan mehnat bozori extiyojlariga tez moslashishga qodir rakobatbardosh kadrlarni yetishtirish, o'z navbatida, oliy ta'lim tizimiga innovatsiyalarni kiritishni talab qilmoqda.

Globalashuv sharoitida mamlakatimizning kelajagini tashabbuskor, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun xam mamlakatimizda ta'limning barcha bug'inlari rivojiga aloxida urg'u berilib kelinmokda.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini boshqarishni jadal rivojlantirishga yuqori darajada e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yillarda rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida «uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish» bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning muvoffaqiyatli ijrosi turizm sohasida kadrlarni tayyorlashning metodologik asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Turizmدا kadrlarni boshqarishning nazariy asoslari xorijlik olimlardan Asher (2007), Barro (1999), Duglas (2011), Andrade (2010), Hanushek (2000), Pritchett (1996) va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Iqtisodchi olim Alimova (2017) o'zining "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari" nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, marketing konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterlarni shakllantirish bo'yicha ilmiy mulohazalarni keltiradi.

Dwyer va boshqalar (2010) turizm korxonalarining moliyaviy boshqaruv amaliyotlarini o'rganib chiqdi va bu sektorga xos bo'lgan mavsumiylik va o'zgaruvchanlikni yengish uchun moslashuvchan strategiyalar zarurligini ta'kidladi. Ular samarali byudjetlashtirish va pul oqimini boshqarish muhimligini ta'kidladi.

Ruziyevning (2020) "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari (xorijiy tajribalar asosida)" nomli maqolasida, Avstriyada turizmni rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning qabul qilinishi, sohani qo'llab-quvvatlash borasida huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish hamda tartibga solish, nazorat qilish hamda moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratgan.

Nazariy tadqiqotlar asosida aniqlangan turistik xizmatlarga bo'lgan talab va taklif mavsumiy tebranishlarini tekislash masalasi esa yana bir guruh tadqiqotchilarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Xususan, Gubskaya va Ziryanov (2016), Konovalova va Lapteva (2019), Suranova (2023) hamda Ognevalarning (2016) tadqiqotlarida turistik xizmatlar mavsumiy tebranishlarini tekislash uslubiyotlari nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Yana bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida mavsumiylik omilining turistik xizmatlarga bo'lgan talabga ta'siri tadqiq etilgan. Jumladan, Voloshinova va Ollar (2019) tomonidan turizm sohasida mavsumiy tebranishlar muammosining tahlili va mavsumiylik omilini bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish masalalari tadqiq etilgan bo'lsa, Chabanyuk (2016) tomonidan turistik xizmatlar taklifiga ta'sir etuvchi omillarni ranjirlash masalasi o'rganilgan.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan Axunova (2005), Begalov (2012), Bekmurodov (2011), Gulyamov (2004), Sh.N.Zaynutdinov (2010), Ikramov (2018), Kasimova (2011), Raximova (2000), Raxmanbayeva (2012), Saidov (2002), Ochilov (2018), Yusupov (2013), Qayumova (2012), Qurbonov (2006), Qurolov (2017) va boshqalarning ilmiy asarlaridagi metodologik jihatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida shu xulosaga kelindiki, hozirga qadar aynan turizmدا kadrlarni tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlariga to'liq yoritilmagan. Shunga ko'ra, mazkur masalalar yuzasidan bir qator ilmiy, uslubiy va amaliy muammolarning hal etilish zarurati mavjud.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqot davomida regression va korrelyatsion tahlil qilish, guruhlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilib, axborot bazasi sifatida 2016-2022 yillarda yillik ko'rsatkichlar (vaqtli qatorlar) [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytidagi ma'lumot olingan.

Mustaqil had va o'zgaruvchilarni qo'yidagi belgilanish asosida olindi:

Xorijiy turistlar (ming nafar) (y), 0 dan 18 yoshgacha (y1), 19 dan 30 yoshgacha (y2), 31 dan 55 yoshgacha (y3) 55 yoshdan oshgan (y4), Ichki turistlar (ming nafar) (y5), Aholining mobil aloqa bilan ta'minlanganligi (100 ta doimiy aholiga, jismoniy shaxslar) (x1), Aholining internet bilan ta'minlanganligi (100 ta doimiy aholiga, jismoniy shaxslar) (x2), Tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi (x3), Yo'lovchi aylanmasi, mlrd. yo'lovchi-km (x4), Elektron tijorat savdo aylanmasi (mlrd. so'm) (x5), Talabalar soni, ming nafarda (x6), Xizmatlar sohasida talabalar soni, ming nafarda (x7).

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilini davrda (2016-2022 yillarda) yillik statistik ma'lumotlarini tahlil qildik.

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistikasi qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

#### O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistikasi

Contains data

```
obs:      8
vars:    13
size:   416
```

| variable name | storage type | display format | value label | variable label |
|---------------|--------------|----------------|-------------|----------------|
| y             | float        | %8.0g          |             |                |
| y1            | float        | %8.0g          |             |                |
| y2            | float        | %8.0g          |             |                |
| y3            | float        | %8.0g          |             |                |
| y4            | float        | %8.0g          |             |                |
| y5            | float        | %8.0g          |             |                |
| x1            | float        | %8.0g          |             |                |
| x2            | float        | %8.0g          |             |                |
| x3            | float        | %8.0g          |             |                |
| x4            | float        | %8.0g          |             |                |
| x5            | float        | %8.0g          |             |                |
| x6            | float        | %8.0g          |             |                |
| x7            | float        | %8.0g          |             |                |

O'chlov birliklari turlicha bo'lganligi sababli biz barcha omillarni logariflab oldik.

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistikasi qo'yidagi jadvalda aks ettirilgan.

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya matritsasi tuzildi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, natijaviy omil (y,y1, y2,y3,y4,y5) va unga ta'sir etuvchi omillar (X1, X2, X3, X4, X5, X6, X7) o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi.

2-jadval

**O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning  
tasviriy statistikasi**

| Variable | Obs | Mean     | Std. Dev. | Min      | Max      |
|----------|-----|----------|-----------|----------|----------|
| y        | 8   | 8.158131 | .6366617  | 7.315884 | 8.934192 |
| y1       | 8   | 5.86881  | .7081407  | 4.94876  | 6.833032 |
| y2       | 8   | 6.46783  | .6156734  | 5.655992 | 7.182352 |
| y3       | 8   | 7.496274 | .6373175  | 6.669498 | 8.273082 |
| y4       | 8   | 6.533422 | .6572305  | 5.669881 | 7.340187 |
| y5       | 8   | 9.107462 | .4681429  | 8.170186 | 9.598863 |
| x1       | 8   | 4.256115 | .0690092  | 4.17389  | 4.368181 |
| x2       | 8   | 3.902579 | .3684611  | 3.370738 | 4.399375 |
| x3       | 8   | 8.686155 | .072048   | 8.574687 | 8.807472 |
| x4       | 8   | 4.912076 | .0896882  | 4.773224 | 5.062595 |
| x5       | 8   | 6.01509  | 3.09933   | 1.797264 | 9.598727 |
| x6       | 8   | 6.259923 | .5230839  | 5.592106 | 6.904751 |
| x7       | 8   | 3.106824 | .5553002  | 2.415914 | 3.747148 |

Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omilning va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida zich bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, ya'ni xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari qiymati aksariyati 0,7 dan katta.

Bu yerda asosiy masala ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi shartidir. Ya'ni ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud bo'lmasligi lozim bo'lib, ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, multikolleniarlik mavjud hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy barqarorligiga ayrim omillar (X) va natijaviy omillar (U) ning kombinatsiyalarini alohida-alohida ko'rib chiqish zarur bo'lib, ularning ichidan adekvatlari tanlab olinadi.

Statistikaning nazariy talabi bo'yicha barcha ta'sir etuvchi omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentlariga qiymatlari 0,5 dan kichik bo'lish talab etiladi hamda bu esa ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud emasligidan dalolat beradi.

3-jadval

**O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning  
regression modeli**

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 8      |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model    | 2.58629985 | 3  | .862099948 | F(3, 4)       | = | 13.73  |
| Residual | .251067248 | 4  | .062766812 | Prob > F      | = | 0.0142 |
| Total    | 2.83736709 | 7  | .405338156 | R-squared     | = | 0.9115 |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | 0.8451 |
|          |            |    |            | Root MSE      | = | .25053 |

  

| y     | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| x4    | 6.55496   | 1.347956  | 4.86  | 0.008 | 2.812436 10.29748    |
| x5    | .9655749  | .4009327  | 2.41  | 0.074 | -.1475928 2.078743   |
| x7    | -5.732873 | 2.205474  | -2.60 | 0.060 | -11.85625 .3905027   |
| _cons | -12.03732 | 8.673667  | -1.39 | 0.238 | -36.11928 12.04464   |

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ko'p omilli ekonometrik modelning eng kichik kvadratlar usuli asosida hisoblangan parametrlari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

(1) modelning avtokorrelyatsiyaga tekshirishda, Breush-Godfri testi o'tkaziladi.

Agar qo'shni kuzatuvlarda korrelyatsiya mavjud bo'lsa, ushbu tenglamada  $e_t = \rho * e_{t-1} + v_t$ ,  $t = 1, \dots, n$

(bu yerda yet - eng kichik kvadratlar usuli orqali olingan regressiya qoldiqlari) n koeffitsiyenti noldan farqli bo'ladi.

Modelning avtokorrelyatsiyaga Breush-Godfri testi orqali tekshiruvi natijalari ushbu jadvalda keltirilgan (5-jadval).

O'zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarning geteroskedatistiklik testi 5-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

**O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning regression modeli**

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 8       |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|---------|
| Model    | .002891967 | 2  | .001445984 | F(2, 5)       | = | 0.96    |
| Residual | .007516744 | 5  | .001503349 | Prob > F      | = | 0.4432  |
|          |            |    |            | R-squared     | = | 0.2778  |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | -0.0110 |
| Total    | .010408712 | 7  | .001486959 | Root MSE      | = | .03877  |

  

| e2    | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| x3    | 2.853351  | 2.072264  | 1.38  | 0.227 | -2.473572 8.180275   |
| x4    | -2.25385  | 1.664683  | -1.35 | 0.234 | -6.533054 2.025354   |
| _cons | -13.68219 | 9.895055  | -1.38 | 0.225 | -39.11823 11.75386   |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rib turibmizki bu yerda getereskedatistiklik muammos yo`q - model adekvat.

5-jadval

**O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning geteroskedatistiklik Uayt testi**

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 8      |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model    | .004592906 | 2  | .002296453 | F(2, 5)       | = | 1.97   |
| Residual | .005815806 | 5  | .001163161 | Prob > F      | = | 0.2334 |
|          |            |    |            | R-squared     | = | 0.4413 |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | 0.2178 |
| Total    | .010408712 | 7  | .001486959 | Root MSE      | = | .03411 |

  

| e2    | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| yhat  | 1.201892  | .6376576  | 1.88  | 0.118 | -.4372585 2.841043   |
| yhat2 | -.0748665 | .0393054  | -1.90 | 0.115 | -.1759042 .0261711   |
| _cons | -4.766861 | 2.576381  | -1.85 | 0.124 | -11.38966 1.855937   |

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning turli variatsitsiyalar asosida statistik jihatdan ahamiyatlarini tanlab olib regression tenglama tuzamiz.

$$Y = 6,55X_4 + 0,96X_5 - 5,73X_7 - 12,03 \quad (1)$$

$$Y = 2,85X_3 - 2,25X_6 - 13,68 \quad (2)$$

$$Y = 1,4X_5 + 10,36X_6 - 17,31X_7 - 11,38 \quad (3)$$

$$Y_1 = 1.2X_5 + 10.51X_6 - 15.92X_7 - 17.72 \quad (4)$$

$$Y_2 = -0.12 X_2 + 15.7 X_6 + 125.69 \quad (5)$$

$$Y_2 = 5.99 X_4 + 3.89 X_2 - 3.04 X_7 - 28.72 \quad (6)$$

1-6 Ekonometrik tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ichida qisqa davrda (2016-2022 yillarda) yillik statistik ma'lumotlarini tahlil qilinganda, 31 dan 55 yoshgacha bo'lgan xorijiy turistlar Aholining internet bilan ta'minlanganligi (100 ta doimiy aholiga, jismoniy shaxslar) tashilgan yo'lovchilar, yo'lovchi aylanmasi, elektron tijorat savdo aylanmasi, talabalar soni hamda xizmatlar sohasida talabalar soni o'rtasidagi bog'lanishlar statistik ahamiyatli emas.

Ko'p omilli ekonometrik modellarning statistik jihatdan ahamiyatligini tekshirishda Fisherning F-mezoni qo'llaniladi. Fisherning hisoblangan F -mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar Fhisob > Fjadval bo'lsa, u holda ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko'rsatkichini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi.

Boshqa omillar o'zarmagan sharoitda, mamlakatimizda yo'lovchi aylanmasini 1 foizga oshishi xorijiy turistlarning 6.55 foizga oshishiga xizmat qilarkan, elektron tijorat savdo hajmini 1 foizga oshishi xorijiy turistlarning 0.96 foizga oshishiga, talabalar sonining 1 foizga oshishi xorijiy turistlarning 10.51 foizga oshishiga, tashilgan yo'lovchilar sonining 1 foizga oshishi xorijiy turistlarning 2.85 foizga oshishiga olib kelishi aniqlandi. Biroq, talabalar soni hamda xizmatlar sohasida talabalar soni bilan xorijiy turistlar sonini ortishi o'rtasida teskari korrelyatsion aloqa mavjudligi aniqlandi. Bu esa turizm sohasida kadrlar tayyorlashda arim muammolar mavjudligini kuzrsatadi.

### Xulosa va takliflar

Tadqiqot modernizatsiya sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish uchun ushbu tamoyillar taklif qilinadi:

1. Samaradorlik printsiipi: turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimining ishlashi va rivojlanishi ustuvor yo'nalishlarda rivojlanishni jadallashtirish va jahon bozorlaridagi faoliyat orqali Mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish va barqaror o'sishiga o'z hissasini qo'shishi kerak.

Turizm sohasi yalpi ichki mahsulotning shakllanishi, mamlakatimiz to'lov balansini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash va turmush sifatini oshirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Mamlakat turizm sohasining qanchalik tez va samarali rivojlanishi ko'plab omillarga, jumladan, yuqori malakali mutaxassislariga bog'liq. Kadrlar tayyorlash turizm sohasini malakali ishchilar bilan ta'minlashi kerak, bu esa qo'shimcha daromad keltirishi va iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak.

2. Kasbiy kompetentsiyalarni, nazariy bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga asoslangan kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili, kadrlar tayyorlash sifatiga e'tibor berish. Zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv ularning ijtimoiy va kasbiy harakatchanlik darajasini va turizm sohasining turli sohalarida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

3. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini boshqarishning davlat va bozor mexanizmlarini oqilona uyg'unlashtirish tamoyili. Ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari, o'qitish shakllari va usullarini tanlashda mavqeidan kelib chiqqan holda ma'lum akademik erkinlik saqlanishi kerak.

4. Asosiy iste'molchilar, milliy va jahon bozorlari manfaatleri va ustuvorliklarini hisobga olgan holda tarmoq mehnat bozoriga yo'naltirish tamoyili

5. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda ish beruvchilarning keng ishtiroki tamoyili, kadrlar tayyorlash sohasida iste'molchining o'zaro hamkorligi va fikr-mulohazalarini amalga oshirishning samarali mexanizmini yaratish. Ushbu tamoyilning ko'p jihatlari avvalgisiga mos kelib, yuqorida aks ettirilgan. Biroq, ba'zi jihatlarni ham ta'kidlash kerak. Bular: turizm sohasi uchun kasbiy tayyorgarlikka ish beruvchilarni keng jalb etishga e'tibor qaratish (masalan, oliy o'quv yurtlarining imtixon komissiyalarida ishbilarmon doiralar vakillari ishtirokida bitiruvchilarni tanlash); talabalarning bandlik bo'limlari bilan o'zaro hamkorlik, mehnat yarmarkalarida, kasb kunlarida ishtirok etish, talabalarning amaliyot orqali amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish jarayoniga ish beruvchilarni jalb etish; diplomlarni himoya qilish va turli star-ap va loyihalarni tayyorlash uchun asos yaratish.

6. Ta'lim muassasalari va kasbiy hamjamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tamoyili, o'zaro hamkorlik va fikr-mulohazalarni amalga oshirishning samarali mexanizmini yaratish. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimida tarmoq tashkilot va korxonalarida kadrlar tayyorlash sifati tekshiriladi, tasdiqlanadi va amaliy ishlar bilan boshqariladi. Amaliyot haqiqat mezon, kognitiv faoliyat manbai va ta'lim natijalarini qo'llash sohasidir.

7. Kasbiy tayyorgarlik natijalarini doimiy monitoring qilish, samarali tuzatish choralari ishlab chiqish va turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash natijalariga ta'sir qilish tamoyili.

8. Universitet ilmiy, amaliy tadqiqotlari va turizm sohasining real ehtiyojlariga asoslangan kadrlar tayyorlash tizimining ilmiy bazasini hamkorlik qilish tamoyili. U fanning zamonaviy darajasi, o'qitish mazmuni va amaliy faoliyat haqiqati o'rtasidagi tabiiy bog'liqlikka asoslanadi; kasb-hunar ta'limi mazmuni talabalarni nafaqat ilmiy faktlar, tushunchalar, qonuniyatlar va nazariyalar bilan, balki turizm sohasida keng qo'llaniladigan aniq amaliy ishlanmalar va texnologiyalar bilan ham tanishtirishni talab qiladi.

9. Kadrlar tayyorlashda milliy xususiyatlar hamda ilg'or mahalliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlashning xalqaro tizimi bilan integratsiyalashuv tamoyili. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlashning xalqaro tizimiga integratsiyalashuvi masalasi turizm sohasidagi ta'lim muassasalari uchun dolzarb bo'lib, u hozirda butun mamlakatimiz ta'lim tizimi tomonidan keng tatbiq etilmoqda. Ta'lim muassasalarining vazifasi shunday darajadagi mutaxassislarini tayyorlashdan iboratki, ular olgan modullar Yevropa va Amerikadagi turizm sohasining ta'lim muassasalarida chet elda hisobga olinadi. Ushbu faoliyatning boshqa yo'nalishlari: fan va ta'lim sohalarida xalqaro hamkorlikni tashkil etish; xorijiy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini, shu jumladan, o'qituvchilar amaliyotini amalga oshirish; bakalavriat va magistratura talabalari; turizm sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish.

10. Mutaxassislar o'rtasidagi aloqalarni tashkil etish, tajriba almashish, faoliyatda raqobatlashish, yosh mutaxassislarini kasbiy tashabbuslarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash, muammolar va loyihalar bo'yicha maslahatlar berishdan iborat bo'lgan doimiy muloqot tamoyili (fan, kadrlar tayyorlash va fan o'rtasidagi aloqa) ishlab chiqarish.

#### **Adabiyotlar / Jumepamypa/ Reference:**

*Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.*

*Andrade E.C., Laurini, M., (2010). «New evidence on the role of cognitive skills in Economic Development», Economics Letters, Vol.117 (1), pp.123–26;*

*Barro, R., (1999). «Human Capital and Growth in Cross Country Regressions», Swedish Economic Policy Review, Vol.6, pp.237–77;*

*Dwyer, L., Forsyth, P., & Dwyer, W. (2010). "Tourism Economics and Policy". Channel View Publications.*

*Hanushek, E., Kimko, D., (2000). «Schooling, Labor-force quality, and the growth of nations», American Economic Review, Vol.90(5), pp.1184–208;*

Pritchett, L., (1996). «Where Has All the Education Gone?», World Bank Policy Research Paper, No.1581 [online] Available from: <[http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/unpan/unpan\\_002390.pdf](http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/unpan/unpan_002390.pdf)

Qayumova N.O. (2012) O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarini ekonometrik tadqiqoti. Iqt. fanl. dokt. ... diss. – T., – 317 b. il.;

Qurbonov Sh., Seytxalilov E. (2006) Ta'lim sifatini boshqarish. – T., – 592 b.;

Qurolov Q.Q. (2017) Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy ta'lim tizimining takomillashuvi qonuniyatlari. Iqt. fanl. dokt. ... diss. avtoref. – T., – 91 b.

Sh.R.Ruziyevning "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari (xorijiy tajribalar asosida)". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.

Yusupov A.T. (2013) Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar davlat attestatsiyasi: metodologik-uslubiy, normativ-huquqiy va ilmiy-tashkiliy yo'nalishlari / A.T. Yusupov. – T., – 648 b.;

Ахунова Г. (2005) Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари: Монография. – T., – 244 б.;

Ашер А., Савино М. (2007) Глобальные рейтинги и рейтинговые таблицы // Вопросы образования. - С. 201–216;

Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. (2012) Высшие учебные заведения в формировании национальной инновационной системы страны // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 4.;

Бекмуродов А.Ш. (2011) Интерактивное обучение и информатизация образования – важнейшее условие для выпуска профессиональных и компетентных кадров // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 1.;

Волошинова М.В., Ооль А.М. (2019) Анализ проблемы сезонных колебаний спроса в туризме и стратегий по решению сезонности // Актуальные проблемы развития сферы услуг: Сборник научных трудов. Под редакцией Ю.В. Долматеня, В.А. Ткачева. Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный экономический университет, С. 107-114.

Губская К.В., Зырянов А.И. (2016) Сезонность туризма в Пермском крае // Географический вестник. №2 (37). С. 119-127.

Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. (2004) Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Т., – 170 с.;

Дуглас Д. (2011) Новый мировой порядок в высшем образовании: как и почему правительства создают структурированные рынки возможностей // Вопросы образования. – 1. – С.73–98.;

Зайнутдинов Ш.Н., Очилов А.О. (2010) Олий таълим муассасаларини бошқариш самарадорлигини баҳолаш // Иқтисодиёт ва таълим. – 2. – 83-87-б.;

Икрамов М.А. (2018) Проблемы становления рынка образовательных услуг в Республики Узбекистан // Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития. Материалы международной научно-практической конференции. – Т., ТГЭУ, – 3. – С.167–171.;

Касымова Д. (2011) Пути взаимодействия субъектов рынка труда: работник–работодатель // Иқтисодиёт ва таълим. – 6. – С. 22–25.;

Коновалова Е.Е., Лаптева Е.В., Крапивко И.А. (2019) Экономика впечатлений как инструмент по сглаживанию сезонности в индустрии гостеприимства / Е.Е. Коновалова, Е.В. Лаптева, И.А. Крапивко // Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса. – №2. – С. 93-102.



Огнева, Н.В. (2016) Событийный туризм как метод корректировки сезонных колебаний в индустрии гостеприимства / Н. В. Огнева, А. К. Эмексузян, Л. В. Штомпель // Молодежь - науке-VII. Актуальные проблемы туризма, спорта и бизнеса: Материалы Всероссийской научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых, Сочи, 21–22 апреля 2016 года. – Сочи: Сочинский государственный университет, – С. 180-183.

Очилов А.О., Самадов А.Н. (2018) Модель управления трудоустройством выпускников высших образовательных учреждений в Узбекистане // «Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития». Материалы международной научно-практической конференции. – Т., ТГЭУ, – 3. – С. 276–283.;

Рахимова Д.Н. (2000) Управление процессами развития и использования трудового потенциала Узбекистана в условиях осуществления радикальных рыночных реформ. – Т., – 225 с.;

Рахманбаева Р.А. (2012) Управление интеллектуальным потенциалом вузов в условиях интеграции образования и производства. Автореф. дисс. ... д-ра эконом. наук. – Т., – 50 с.;

Саидов М.Х., Исманов М.А. (2002) Менеджмент и инновации современного профессионального образования. – Т., – 79 с.;

Суранова О.А. (2023) Меры управления по сглаживанию сезонных колебаний на услуги средств размещения туристов / О.А.Суранова / Геополитика и экогеодинамика регионов. – №1. – С. 208-219.

Чабанюк О.В. (2016) Ранжирование факторов сезонности, влияющих на туристское предложение / О.В. Чабанюк // Вестник РМАТ. – №1. – С. 25-32.